

“UNVONUL BAYON “ ASARI MUALLIFI VA ASAR YOZILGAN DAVRDAGI ILMIY MUHIT

Nusratullayev Abdulbosit Nusratulla o'g'li

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi 1 kurs tayanch doktoranti

Har qanday asarni o'qish va o'rganishdan avval uning muallifini tanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, asar muallifi yetuk olim, o'z fanida mohir va buyuk shaxsiyatlardan ekanini bilish o'rganilayotgan asar ustida izlanayotgan tadqiqotchiga o'zgacha shukuh va tetik ruhiyat bag'ishlaydi. Kamina xodimingiz tadqiqot olib borayotgan “Unvonul bayon” asarining muallifi Abdulloh Shibroviiy rohimahulloh ana shunday buyuk shayx, yetuk alloma va fozil shaxsiyatlardan biridir. Shunga ko'ra, ushbu tadqiqotimizni u zotning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarni taqdim qilishdan boshlashni munosib deb bildim.

Misrda ko'p asrlik tarixga ega “Azhar sharif” ilmiy dargohi, ya'ni hozirgi “Al-azhar” universitetining yettinchi shayxi – shoir, adib, olim Abdulloh ibn Muhammad ibn Omir ibn Sharafuddin Shibroviiy Misrdagi renessans (النهضة) davri fotihlaridan hisoblanadi, u milodiy 1681, hijriy 1092-yili Qohira shahrida dunyoga kelgan.

Bolaligidanoq uning qobiliyati namoyon bo'la boshladi. Uning tengdoshlari hali o'yinqaroqlik yoshidan o'tmasdan, ko'cha changitib yurgan paytda yosh Abdulloh Qur'oni karimni to'liq yod oldi. Diniy ilmlarni o'rgana boshladi. Shu bilan birga u she'rlar ham yozardi. Abdulloh juda ko'p kitob o'qirdi va bu uning ijod qilib, yozuvchilik qilishida zaxira vazifasini o'tadi. Shunday qilib, u ko'zga ko'ringan shoir bo'lib ham yetishib borardi. Va albatta, u diniy ilmlarning asosini tashkil qiluvchi hadis hamda fiqh ilmini ham chuqur o'rgandi. Islom dinining aqiydaviy masalalarini o'z ichiga oluvchi – “kalom ilmi” nomi bilan tanilgan aqid ilmini ham puxta o'rganishga kirishdi.

Shu o'rinda bir ma'lumotni eslab o'tishni lozim topdik, odatda din ilmlari bo'yicha olim bo'lganlar ikki toifada bo'ladi: birinchi toifa Islom dinining nazariy – aqiydaviy qismi bo'lmish kalom ilmini aqiydaviy kitoblardan o'rganib oladi va turli savolarga javoblar olib, o'rganib chiqish bilan cheklanadi. Shuningdek, Islom dinining amaliy qismi bo'lmish fiqhiy masalalarni ham tayyor kitoblardan o'rganib, o'z vaqtida mujtahid imomlar yechib berib ketgan masalalarni, fatvolarni yodlab oladi. Mana shu o'rganganlari bilan u o'zining hamda atrofidagi undan kelib so'rovchilarning hayotida ro'y beradigan masalalarga javob topadi. Ilmda bu olimlikning eng quyi darajasi hisoblanadi. Ikkinchi toifa esa ayni birinchi toifa o'rgangan ilmga qo'shimcha ravishda, ham aqiydaviy, ham fiqhiy masalalardagi ushbu yechimlar islomiy ilmlarning asosiy manbalari bo'lmish Qur'oni karim, sunnati sharifa, xulafoi roshidinining, sahobalarning hukm chiqarib yechilmagan masalani hal etishda qilgan ittifoqlari, so'ng javobi topilmagan masalalarda yuqorida sanab o'tilayotgan manbalarga mushtarak jihati bo'lgan masalalarni qiyos yo'li bilan hal qilish kabi ilmiy manbalarni ham o'rganadi, Qur'on va hadis matnidan qanday qilib hukm chiqarib olish ilmini, bir-biriga muvofiq yoki zid kelayotgan dalillarni qanday qilib solishtirish yo'llarini ham o'rganadi. Bu ilm “usul ilmi” (yoki “usul ul-fiqh” va “usul ul-aqid”) deb ataladi. Biz o'rganayotgan olim Abdulloh Shibroviiy ham tadqiqotchilar, tarixchilar ana shu ikkinchi toifaga mansub allomalardan ekanini zikr qilishgan.

Imom Abdulloh Shibroviy o`zida ko`p iste`dodni jamlagan shaxs edi, u ajoyib shoir, olim, Qur`on hofizi, diniy ilmlarni usul ilmi bilan qo`shib o`rgangan edi. Jabarutiy o`zining “tarjima”sida bunga ishora qilib o`tgan: “Imom Shibroviy faqih, muhaddis, usuliy (usul ilmi olimi), mohir mutakallim (kalom ilmi olimi), shoir, adib edi, Azharda shayxlik martabasiga u o`ttiz to`rt yoshida munosib topildi. Fiqhda u Shofeyi mazhabiga ergashgan edi, u yashagan muhit ilmiy muhit edi”.

Shayx Shibroviy Shofeyi mazhabida edi. Biror mazhab ahlining o`z qo`lidagi narsani boshqa bir mazhab ahliga, u narsaning qiymati qay darajada bo`lishidan qat`i nazar, topshirib qo`yishi juda qiyin ekani ilm ahliga ma`lum. Endi bu Azhardagi eng ulug`, obro`li mansab - shayxlik maqomi bo`lsa yanada tushunarli.

Imom Shibroviy molikiyya mazhabi vakillari oldida o`zining shayxlik martabasiga loyiq ekanini isbotladi. Chunki u o`zidan oldin shayxlik kursisida o`tirgan imomlar qo`lida shogird bo`lgan edi. O`sha ustozlarning barchasi Abdullohga munosib baho berardilar, uning iste`dodini, zakovatini yaxshi bilardilar. Xususan, uning ustozlari Shayx Xaroshiy ham Abdullohga yuqori baho berib, uni hali bor-yo`g`i sakkiz yoshligidayoq o`zidan ilm o`rganib, hadis rivoyat qilishga ruxsat bergan edi. Negaki u o`sha paytlariyoq mashhur olti muhaddisning hadis kitoblarini yod olib, ustozlari izni bilan ularni rivoyat qilar - bilmaganlarga, so`raganlarga yetkazar edi. Bu esa Abdulloh yoshligidanoq barmoq bilan ko`rsatiladigan darajadagi sanoqli zehni o`tkir hofizlardan biri bo`lgan, deganidir. Hadis toliblari uning huzuriga kelib hadis o`rganardilar, boshqa yurtlardan kelib ham uning halqasidan ilm olardilar.

Abdulloh Shibroviy rayosatda va ilmda o`z qadriga ega bo`lgan oiladan chiqqan edi. U ilmi olim va obro`li shaxs bo`lishi bilan birga mahoratli shoir ham edi. Uning she`rlari nozikligi, bayon tili shirinligi bilan, aytilayotgan maqom va munosabatga mosligi bilan ajralib turardi. Uning she`rlari biror bir maqsadga qaratilgan emasdi. Shu bilan birga biror soha doirasida cheklanib ham qolmasdi.

Abdulloh Shibroviy ulamolar oldida bo`lgani kabi hokimlar huzurida ham katta obro` topgan hurmatli inson edi. U o`z asridagi voqealarni nasrda va nazmda qog`ozga tushirgan. Uning qasidalarini o`z zamonasining farzandlari hirgoyi qilib yurardi.

Uning shogirdlaridan bo`lmish Abdulloh Boshu ibn Mustafo Boshu al-Kubriy Misrga hokim bo`lgan, u ham shoir, adib va katta olim bo`lgan. U hokimlik mansabini egallashi bilanoq katta ulamolar, adiblar va shoirlar bilan aloqa o`rnatdi, ulardan ilm oldi. Jabarutiy aytadiki, u solih inson va shariatga amal qiluvchi kishi edi. Ko`plab yomon odatlarni bekor qildi. Aytib o`tganimizdek, u Shayx Shibroviyning shogirdlaridan, Shibroviy taqriban qirq besh yil Azhardagi shayxlik kursisida o`tirdi. Bu vaqt davomida Azhar yanada gullab-yashnadi. Shayx Shibroviyning ilmi va odobi, ulamolarga xos sokinlik, go`zal xulq butun Azhar talabalari siymosida aks etdi.

Odamlarga hokimlar tomonidan biror zulm yetsa darhol Azhar ulamolariga yugurib kelib, dardlarini aytib yordam so`rardilar. Azhar ulamolari boshida Abdulloh Shibroviy turardi. Ular odamlardan yordamlarini ayamasdilar, ularga imkon qadar yordam berardilar va ularning haqqini olib berardilar. Bu esa Abdulloh Shibroviyning mansabga berilmagani va o`z vazifasini chiroyli idora qilganiga dalildir. Ba`zilar Shayx Shibroviydek inson Azharda buncha

muddat davomida shayxlik qildi, bu uning “beli baquvvat”ligidan, deb bilardilar. Aslida esa holat mutlaqo buning aksi edi. Uning siyrati ham bunga dalil edi.

Abdulloh Shibroviy keng dunyoqarashli suhbatdosh, hujjati (aytayotgan so`ziga dalili) kuchli, (talashib-tortishmaydigan) chiroyli yo`l bilan munozara qiladigan, hamsuhbati bilan biror sohani tark qilmasdan to`xtalib o`tdigan ilmga ega edi. U bilan munozara qilganlar suhbat so`ngida odatda Shayx Shibroviyning fikrini tasdiqlab, uning ra'yiga ergashardi. Alloh taolo Abdullohga katta mol berdi, u molini Azharning sha'nini ko`tarishga sarflashda, ulamolari va talabalariga infoq qilishda boylarga namuna bo`lardi.

Shayx Abdulloh Shibroviy hokimlar, voliyar va ularning atrofida kishilar oldida ham katta shuhrat qozongan, obro`ga ega, etimomga sazovor edi. U o`zining devonida ham ularni ko`p marta madh etgan. Ularni keng va mafassal maqtagan, qasidalar yozgan.

Shayx Abdulloh Shibroviy o`zining shariat ilmlari borasidagi qobiliyatidan ham ba'zi qasidalar yozishda keng foydalangan. U ilmning turli sohalariga oid qoidalarni talabalar eslab qolishi oson bo`lishi uchun nazmga slogan. Masalan uning nahv ilmiga oid “Ajrumiyya” (الأجرومية) qasidasi tilshunoslar orasida mashhur. Imom Abdulloh Shibroviyning ulkan mavqeiga ko`pchilik insonlar guvohlik berganlar, deyish mumkin. Masalan, Jabarutiy o`zining “osor”ida (الأثار) aytadi: “u taqdirning turli sharoitlarida ham, qiyin vaziyatlarda ham matonat bilan kurashdi, bo`sh kelmasdan harakat qildi. Talabalarga dars berishda davom etdi va bora-bora buyuk insonga aylandi. Obro`li, mol-davlatli, amirlar va davlat arboblari oldida ehtimomga sazovor insonga aylandi. So`zi o`tar, shafoti¹⁸² qabul qilinardi. O`z zamonida ahli ilm va ulamolar oldida, shuningdek, Azharda shayxlik qilgan davrda yuqori maqomga ega, barchaning oldida haybatli, viqorli insonga aylandi. Uning oldiga amirlar keladigan, eng yaxshi hadyalarini beradigan bo`ldi. Bu ayniqsa uning oldiga usmoniy voliy Abdulloh Boshho kelib, unga shogird tutinib dars olishi bilan yanada yaqqol namoyon bo`ldi. Voliy Abdulloh Boshho undan hadis rivoyat qilishga ijozat so`ragan.

Davlat xazinasi hisobidan vaqf mollariga egalik qilishi kerak bo`lganlarga nisbatan usmoniy sulton tomonidan qilingan nohaqliklar bilan bog`liq oylik maoshlar va vaqf masalalarida yuz bergan moliyaviy o`zgarishlarda ham Shayx Shibroviy voliy oldidagi hurmati bilan jabrdiydalarga yordam ko`rsatgan. O`shanda qozi aytadi: “Sultonning amriga xilof qilinmaydi, unga itoat qilish vojib”. Qozi turk edi. Shunda Shayx Mansuriy qoziga: “Ey shayxulislom! Bu maoshlar sultonning noibi amri bilan bo`ladi, sultonning noibi qilgan ish sulton qilgani kabidir. Maoshlar berish ishi oldingi hukmdorlar davridan odat bo`lib kelgan narsa. Bu ish tabiiy boyliklar, masjidlar va suv ichish yo`llari hisobiga kelib tushadi. Buni bekor qilib bo`lmaydi. Agar buni bekor qilinsa, boyliklar bekor bo`ladi, ularga bog`liq marosimlar ham to`xtab qoladi. Shunday ekan, bu ishning mas'uli uni bekor qilishga buyruq bersa ham uning amriga qarshi chiqiladi. Shariatga xilof ish qiladigan rahbarga ham, uning noibiga ham ishni topshirib qo`yilmaydi”, dedi. Bunday javob bera olish Azharning taniqli ulamolaridan biri uchun katta mavqe' sanaladi. Shu vaqtda Azhar shayxi Imom Abdulloh Shibroviy bir taklif ishlab chiqdi, hamma o`sha taklifga kelishdi, sulton ham rozi bo`ldi.

Abdulloh Shibroviyning ilmiy mavqei va o`rni olimlarda va talabalarda ham o`z aksini topdi. Undan izzat-nafsni anglashni, keng dunyoqarashni, bag`rikenglikni o`rgandilar. Buning

¹⁸² Kimnidir himoya qilishi, homiylilgi.

dalili sifatida mutasavvif¹⁸³ zohidlardan biri bilan bo`lib o`tgan bir voqeani yodga olish mumkin: uning atrofiga odamlar to`plana boshladi. Unga nisbatan katta ixlosga ega bo`ldilar. U bilan ba`zi g`aroyib holatlar sodir bo`lardi. Tasavvufga oid bir qancha kitoblar yozdi. “Al-jome’ us-sag`iyr” (الجامع الصغير - “kichik to`plam”) asarini sharhladi, “Ibn Atoullah Iskandariy” (ابن عطاء الله الإسكندري) asarini sharhladi. Natijada mutasavvifning butun xalq orasida obro`si oshib ketdi. U har hafta xachiriga minib, Imom Husayn (r.a.) shahid bo`lgan joyni ziyorat qilishga borardi. Uning tobelari atrofida Imom Husaynga aza tutib faryod solib borardi. Masjid sahnida turib, zikr aytib baland ovozda nola qilardilar. Ulamolar amirlarni unga qarshi chora ko`rishga chaqirishga harakat qilardilar. Lekin Shayx Shibroviy tasavvufni yaxshi ko`rardi. Shuning uchun u bu ishni o`zi tinchlik yo`li bilan isloh qilishni istadi va Boshoga: “bu kishi katta olim va valiylardan, unga qarshi yo`liqmaslik kerak”, dedi va Azhar masjidida ular uchun dars tashkil qilishga chaqirdi. Keyin Shayx Shibroviyning o`zi ularga Navaviyning qirq hadisini (الأربعين النووية) o`qib berdi. Ushbu darsda ko`plab Shibroviyga qarshi bo`lib yurgan olimlar ham ishtirok etdilar va Shayxning ko`ksi to`la ilmidan bahra oldilar.

Ana shunda Shayx Abdulloh Shibroviyning hikmati o`z mevasini berdi - u tasavvufdagi shayxni ilm tarqatishi va hadis o`rganishiga turtki bo`ldi, uning tobelarini esa bema`ni to`polon qilib, faryod qilishdan qaytardi.

Yana bir o`rinda Shayx Shibroviyning bag`rikengligi namoyon bo`ldi. Bu voqea nasroniylar bilan bo`lib o`tgan. Jabarutiy aytadi: “aytishlaricha, Qibt nasroniylari Bayt ul-Maqdisga haj qilgani otlandilar. Bu navro`z mavsumiga to`g`ri kelardi. Shayx Shibroviy bu haqda fatvo chiqardi. Fatvoning qisqacha mazmuni quyidagicha: “zimmiylar¹⁸⁴n o`zlarining diniy marosimlarini o`tkazishdan va Quddusni ziyorat qilishdan man qilinmaydilar”. Qibtlar bundan shodlanib, olqishladilar, katta tantanalar o`tkazdilar. Aslida ham Shayx Imomning fatvosi to`g`ri edi, zimmiylar ham musulmonlar kabi huquq va burchlarga ega bo`ladilar. Ularga ham o`z diniy marosimlariga muvofiq ibodat qilish erkinligi beriladi. Mana shu - Islom hilmi va bag`rikengligidir.

Abdulloh Shibroviy Azharga yangi ilmlarini olib kirgan birinchi inson hisoblanadi. Xususan, matematika, sotsiologiya kabi fanlarni misol keltirish mumkin.

Shayx Abdulloh Shibroviy qutb edi, mashhur olim edi, agar uning barcha fazilatlarini, siyratini, uning Azharga, Azhar olimlariga, Azhar talabalariga ko`rsatgan xizmatini boshdan oyoq yoritib chiqishni istasak, maqom torlik qiladi, mavzu kengayib ketadi. U butun hayotini mehnat va kurashish bilan, odamlarga yaxshilik qilish, kattayu kichikka ezgulik ulashish, talabalarga ilm o`rgatish bilan o`tkazdi. U qirq besh yil Azharda shayxlik qildi.

Milodiy 1757-yili, hijriy 1171-yil zulhijja oyining oltinchi kuni, payshanba kuni Shayx Abdulloh Shibroviy umrini xayrli ishlar bilan to`ldirib, bu dunyodan ko`z yumdi. Uning janozasiga uzoq yaqindan amirlaru ulamolar, avomu xoslar keldi. O`sha kun nafaqat Azhar ahli uchun, balki butun xalq uchun, Shayxni taniydigan, uning ilmidan va yaxshiligidan nasibador bo`lgan barcha uchun qayg`uli kun bo`ldi. Bir olim vafot etsa, uning vafotiga

¹⁸³ Tasavvuf yo`lidagi kishi.

¹⁸⁴ Musulmon davlati hududida yashaydigan g`ayridinlar, ularni ahli zimma ham deyiladi.

osmondagi qushlar, suvdagi baliqlar ham yig`laydi. Uning jismi yo`q bo`lsa ham go`zal zikri asrlar osha barhayot bo`lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Wikipedia www.arabic.uz
2. “Al qomus” arabcha o‘zbekcha lug‘at
3. Махмудова, Д. Б., & Узгунова, К. Е. (2023). ВАЖНОСТЬ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТИ В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ. PEDAGOG, 6(3), 516-519.
4. <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1665/1539>